

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-soni)**



FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MODALLIKNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALARNING TAVSIFI VA TASNIFI

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li

Ingliz tili o‘qituvchisi, University of Business and Science

Tel: +998934997333

E-mail: m-obilov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola modallik kategoriyasining o‘zbek tilidagi lisoniy vositalarini yoritishga bag‘ishlangan. Unda modallikning leksik, morfologik, fonetik va sintaktik sathlardagi ifodalananish usullari atroflicha tahlil qilingan. Modallikni ifodalovchi til birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, modal so‘zlar, undovlar, murojaat shakllari, fe’l mayllari, affiks va yuklamalar, ohang, urg‘u, intonatsiya kabi vositalarning modallik ma’nolarini ifodalashdagi o‘rni misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: modallik, leksik vositalar, morfologik vositalar, fonetik vositalar, sintaktik vositalar, modal so‘zlar, undovlar, fe’l mayllari, affiks va yuklamalar, ohang, urg‘u, intonatsiya, kommunikativ vaziyat, matn, pragmatika.

DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF LINGUISTIC MEANS EXPRESSING MODALITY

Annotation. This article is dedicated to highlighting the linguistic means of the modality category in the Uzbek language. In it, methods of expression of modality at the lexical, morphological, phonetic and syntactic levels are thoroughly analyzed. Special attention is paid to the semantic and pragmatic features of language units representing modality. In particular, the role of tools such as modal words, exclamations, forms of reference, verb moods, affixes and prepositions, tone, accent, and intonation in expressing the meaning of modality is revealed with the help of examples.

Key words: modality, lexical means, morphological means, phonetic means, syntactic means, modal words, exclamations, verb moods, affixes and prepositions, tone, stress, intonation, communicative situation, text, pragmatics.

ОПИСАНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ, ВЫРАЖАЮЩИХ МОДАЛЬНОСТЬ

Аннотация. Данная статья посвящена освещению лингвистических средств категории модальности в узбекском языке. В ней подробно анализируются способы выражения модальности на лексическом, морфологическом, фонетическом и синтаксическом уровнях. Особое внимание уделяется семантическим и прагматическим особенностям языковых единиц, представляющих модальность. В частности, с помощью примеров раскрывается роль таких средств, как модальные слова, восклицания, формы обращения, наклонения глаголов, аффиксы и предлоги, тон, ударение и интонация в выражении значения модальности.

Ключевые слова: модальность, лексические средства, морфологические средства, фонетические средства, синтаксические средства, модальные слова, восклицания, наклонения глаголов, аффиксы и предлоги, тон, ударение, интонация, коммуникативная ситуация, текст, прагматика.

Kirish.

Modallikning mohiyatini to‘liq anglash uchun turli til sathlaridagi ifodalanish vositalarini har tomonlama o‘rganish zarur. U gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini, shuningdek, so‘zlovchining fikrga bo‘lgan subyektiv pozitsiyasini aks ettiruvchi muhim lisoniy kategoriya hisoblanadi. Tilning lug‘aviy tarkibi, grammatic qurilishi va hatto prosodik vositalari ham modallikning turli ko‘rinishlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Modallik tushunchasining umumiyligi ta’rifi va tasnifiga oid jahon tilshunosligidagi turli qarashlarni tahlil qilganda, bu boradagi yondashuvlar o‘rtasida ma’lum bir umumiylig mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, ko‘pchilik olimlar uni gapda ifodalangan propozitsional mazmun bilan uzviy aloqador bo‘lgan grammatic kategoriya sifatida e’tirof etadilar.

J.Layonz ta’kidlaganidek, mazkur hodisa gapda aks ettirilgan propozitsional mazmunga so‘zlovchining shaxsiy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, gap mazmuni obyektiv reallikni tasvirlasa, unga nisbatan bildirilayotgan subyektiv pozitsiya aynan modallik orqali namoyon bo‘ladi. Olimning qayd etishicha, modallik tilning grammatic tizimida muayyan o‘rin egallagan kategoriadir. Uning ma’nolari ko‘pincha maxsus grammatic vositalar, jumladan, modal fe’llar, yuklamalar, ohang kabi unsurlar yordamida ro‘yobga chiqariladi[8,790].

V.Froulining modallikning lisoniy ifodalanish vositalari haqidagi qarashlari mazkur hodisaning serqirra va murakkab tabiatini ochib beradi. Uning ta’kidlashicha, modallik ma’nolari tilning turli sathlariga oid vositalar – grammatic, leksik va prosodik birliklar orqali uzatiladi[3,384].

Grammatic vositalar orasida modal fe’llar va modal so‘zlar alohida o‘rin tutadi. Ular modallikning keng tarqalgan va tizimli ifodalanish usullaridan biri hisoblanadi. Modal fe’llar (masalan, “kerak”, “mumkin”, “shart”) va boshqa grammatic shakllar yordamida turli modal

ma’nolar, jumladan, zaruriyat, imkoniyat, majburiyat kabi munosabatlar aniq va lo‘nda tarzda aks ettiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Modallik hodisasini o‘rganishda asosan deskriptiv-analitik, qiyosiy-tipologik, semantik-pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Modallik leksik, morfologik, fonetik va sintaktik sathlar doirasida tadqiq etilgan. Lingvopragmatika va kontekst omillari ham inobatga olingan holda, uning ifodalananish usullari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida modallik vositalari tasnifining jadvali ishlab chiqilgan.

Natija va muhokamalar

Modallik semalari tilning turli sathlarida, jumladan, leksik, morfologik, fonetik va sintaktik sathlarda namoyon bo‘ladi.

I. Modallikni ifodalovchi leksik vositalarga quyidagilar kiradi:

1. Modal so‘zlar:

Modal so‘zlar so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga nisbatan munosabatini, ya’ni fikrning aniqlik yoki noaniqlik darajasini hamda so‘zlovchining bahosini ifodalashga xizmat qiladi. Ularning o‘ziga xos asosiy jihatlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, modal so‘zlar gapda ifodalangan fikrning so‘zlovchi uchun qanchalik aniq yoki noaniq ekanligini hamda so‘zlovchining ushbu fikrga nisbatan subyektiv munosabatini aks ettiradi. Ular so‘zlovchining ishonch, gumon, taxmin, afsus kabi turli kognitiv-emotsional holatlarini ifodalashga yordam beradi.

Ikkinchidan, modal so‘zlar sintaktik jihatdan gap bo‘laklari bilan bevosita grammaatik aloqaga kirishmaydi va gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular odatda butun gapga taalluqli bo‘lib, gapning umumiyligini mazmuniga qo‘srimcha modal ma’no yuklaydi.

Uchinchidan, modal so‘zlar morfologik jihatdan o‘zgarmas hisoblanadi, ya’ni ularga affikslar qo‘silmaydi va grammaatik shakl yasovchi vositalar bilan birikma hosil qilmaydi. Modal so‘zlar yaxlit leksik birlik sifatida qaraladi va ularning ma’nosini kontekst orqali aniqlanadi.

2. Undov so‘zlar:

Undov so‘zlar asosan so‘zlovchining his-hayajoni va hissiy munosabatlarini ifoda etish bilan bir qatorda, turli modal ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Undovlar yordamida hayratlanish, taajjub, ajablanish, quvonch, xursandchilik kabi modal ma’nolar ifodalanadi va bu nutqimizning ta’sirchanligini, jonli va ifodali bo‘lishini ta’minlaydi.

Masalan, “Voy, onang o‘rgilsin, o‘g‘lim, mehmon ekansizlar, nonga ham pul oladimi? Cho‘ntagingga solib qo‘y, mana, ol, aylanay, – onaxon G‘ayratjonning qo‘liga ikkita issiq non tutqazdi.” (Zarafshon. 2024, yanvar) gapida “voy” undovi orqali so‘zlovchining hayratlanish va zavqlanish tuyg‘ulari ifodalangan. Undov so‘zlarning qo‘llanilishi nutqqa hissiylik va ta’sirchanlik bag‘ishlagan. Masalan: Obbo, dedim, padarla’natlar o‘lmay qolgan ekan, chiqib juftakni rostlashni maslahat qilishyapti, deb o‘yladim. (Said Ahmad, Ufq) Ushbu gapda “obbo” undov so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, so‘zlovchining ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini

ifodalashga xizmat qilgan. “Obbo” undovi orqali so‘zlovchining taajjublangani, hayratlanganini his qilish mumkin. Bundan tashqari, ba’zi undovlar gumon va shubha ma’nolarini ham ifodalashi mumkin. Masalan, “Hm, yaxshiligin ko’rib turibman.” (Said Ahmad, Ufq) gapida “hm” undovi orqali so‘zlovchining shubhalanishi aks ettirilgan

3. Murojaat birliklari:

Murojaat birliklari orqali so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati, hurmat darajasi hamda milliy-madaniy xususiyatlar aks etadi. D.Boymatovaning tadqiqotiga ko‘ra, “xo‘jayin”, “dadasi”, “begim”, “hazratim” kabi murojaat birliklarii hamda “u kishi”, “ular” singari murojaat shakllari aksiologik modallik hodisasini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan: Ayol kishining: “Dadasi, kiring, bemahal bo‘lib qoldi”, degan ovozi keldi. Akbarali javob qilmadi. (Said Ahmad, Ufq)

“Xo‘jayin”, “dadasi”, “begim”, “hazratim” kabi murojaat birliklarii bevosita shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularda hurmat, ehtirom va yaqinlik ma’nolari mujassam. Masalan, “xo‘jayin” so‘zi orqali so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan hurmatini, shu bilan birga, uning maqomini e’tirof etishi ifodalansa, “dadasi” so‘zi orqali esa yaqinlik, mehr-oqibat kabi tuyg‘ular aks etadi. “Begim” va “hazratim” so‘zlari esa yanada yuksak darajadagi hurmat va ehtiromni ifodalaydi.

Shuningdek, tadqiqotchi “u kishi”, “ular” kabi murojaat shakllarining ham o‘ziga xos etnomadaniy xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. “U kishi” murojaat shakli orqali tinglovchiga nisbatan chuqur hurmat ifodalansa, “ular” ko‘plik shakli esa bir shaxsga nisbatan qo‘llanilganda, hurmatning yanada yuqori darajasini bildiradi. Bunda milliy mentalitet va madaniyat o‘z aksini topadi.

Bundan tashqari olima aksiologik modallikning murakkablashgan sodda gaplar tarkibida ham namoyon bo‘lishini qayd etadi. Murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallik so‘zlovchining baholash faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Baholash esa obyektning eng muhim jihatlariga tanqidiy yondashishni talab qiladi va bu lingvopragmatika bilan uзви bog‘liq[2,51].

4. Subyektiv baho beruvchi leksika.

Baholovchi so‘zlar modallikni ifodalashda muhim o‘rin tutadi va so‘zlovchining munosabati hamda fikrini aks ettiradi. Baholash jarayoni bevosita lingvopragmatika bilan bog‘liq bo‘lib, tilning amaliy qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. Baholovchi so‘zlarga quyidagi birliklar kiradi:

- a) sifatlar: yaxshi, yomon, a’lo, chiroqli, xunuk, ajoyib kabi so‘zlar orqali so‘zlovchi o‘z munosabatini bildiradi va obyektga baho beradi;
- b) ravishlar: zo‘r, juda, nihoyatda, ortiqcha, kamroq kabi so‘zlar ham baholash vazifasini bajaradi va so‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalaydi;
- c) otlar: go‘zallik, qobiliyat, fazilat, nuqson, kamchilik kabi so‘zlar ham baholash ma’nosini o‘zida mujassam etadi;
- d) fe’llar: yoqtirmoq, xush kelmoq, ma’qullamoq, taqdirlamoq kabi so‘zlar orqali

so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy bahosi ifodalanadi.

II. Morfologik vositalar:

1. Fe’l mayllari.

Modallik ma’nolarini ifodalashda grammatick vositalar, xususan, fe’l mayllari muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida buyruq-istik va shart mayllari modallikning turli qirralarini aks ettirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan sanaladi. Ushbu mayllar yordamida nutqda buyruq-istik, maslahat, shart kabi modal munosabatlar o‘z ifodasini topadi.

Buyruq-istik mayli fe’lning maxsus shakli bo‘lib, bu mayl orqali buyruq ma’nosini aniq va qat’iy tarzda ifodalanadi. Misol uchun, “Kelajak yoshlarniki, marhamat, ishlasi, ijod qilsin, shart-sharoit va imkoniyatlardan foydalansin. (Zarafshon. 2024, yanvar)” gapida buyruq-istik mayli qat’iy buyruqni ifodaydi.

Shuningdek, buyruq-istik mayli orqali iltimos, istak, maslahat kabi muloyimroq modal ma’nolar ham ifodalanishi mumkin. Bunda ohang va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Ular istiqlol orzusida kurashgan, o‘zini ayamagan, biz mustaqillik uchun nima qilyapmiz, deb o‘zimizga savol berib ko‘raylik. (Xalq so‘zi. 2024, yanvar)” gapida iltimos va taklif ma’nolari aks etsa, “Ko‘proq kitob o‘qigin, dunyoqarashing kengayadi” gapida esa maslahat ma’nosini ifodalangan.

2. Affiks va affiksimonlar.

Affiks va affiksimonlar modallik ma’nolarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Tilshunos olim Z.Qilichev o‘zining ilmiy tadqiqotlarida bu masalani atroflicha yoritib bergan. Uning fikriga ko‘ra, -gina (-kina, -qina), -cha, -choq, -chak, -loq, -jon, -xon, -oy, -voy kabi affiks va affiksimonlar so‘zlovchining obyektiv borliqqa, o‘z nutqiga bo‘lgan modal munosabatini ifodalashda faol qo‘llaniladi. Ushbu til birliklari orqali so‘zlovchi sevgi, erkalash, kuchaytirish, ba’zan esa kansitish kabi konnotativ, ya’ni qo‘sishimcha, ikkinchi darajali ma’nolarni ham ifoda etadi.

Affiks va affiksimonlar ayniqsa badiiy asarlarda personajlar tavsifini ochishda, ularning xarakteridagi dilkashlik, muloyimlik, yoqimlilik kabi xususiyatlarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Yozuvchi ushbu vositalar yordamida o‘z munosabatini, baholashini ham ifodaydi. Kichraytirish-erkalash shakllari ko‘proq dialogik nutqda, personajlar muloqotida qo‘llaniladi va ularning ma’nolari nutqning umumiy mazmuni hamda ohangiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Masalan, “qizcha” va “qizaloq” so‘zlari ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi farqlanadi. “Qizcha” ko‘proq kichraytirish ma’nosida kelsa, “qizaloq” erkalash, suyish ma’nosini ifodaydi. Masalan: 24-umumta’lim mакtabida o‘quvchilik davrini boshdan kechirayotgan qizaloqni ko‘pincha televizorda ko‘rsatiladigan spektakllar o‘ziga ohanrabodek tortardi. (Zarafshon. 2024, fevral) Shuningdek, “Dilbarhon - Dilbaroy”, “Ergashvoy - Ergashjon” kabi qo‘llanishlarda ham erkalash va hurmat ma’nolari uyg‘unlashgan holda, affiksimonlar personajlar o‘rtasidagi munosabatni ham ochib beradi. Masalan: “Vatandoshlar” jamoat fondi boshqaruvi raisi Odiljon Sattorov o‘zbekistonlik

vatandosh xotin-qizlar kengashi a’zolarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma’lumot berdi. [7,160].

Shunday qilib, affiks va affiksimonlarning badiiy asardagi o‘rni, ularning ma’no va vazifalarini to‘g‘ri anglash juda muhimdir. Buning uchun har bir so‘z va shaklni kontekst bilan bog‘liq holda tahlil qilish, yozuvchining uslubiy mahoratini to‘g‘ri baholash talab etiladi.

3. Yuklamalar.

Yuklamalar (affiks) o‘zbek tilida muhim morfologik vosita bo‘lib, so‘zlarning oxiriga qo‘silib, ularga turli xil qo‘sishimcha ma’nolar yuklaydi. Bu esa o‘z navbatida gapning umumiyligini mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuklamalar asosan quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

So‘roq va taajjub ma’nosini bildiruvchi yuklamalar (-mi, -chi, -a (-ya)) so‘zlovchining tinglovchidan ma’lumot yoki tasdiq kutayotganini anglatadi. Shuningdek, ular hayratlanish, ajablanish kabi hissiyotlarni ham ifodalashi mumkin. Masalan: Qurilish ishlari amalgalashishga oshirilayotgan yer uchastkasi bo‘yicha tegishli hujjatlar mavjudmi? (Paxtakor hayoti. 2024, yanvar)

Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari (-ku, -u (-yu), -da, -oq (-yoq)) so‘z yoki gapning ma’lum qismiga urg‘u berib, uni ajratib ko‘rsatadi. Bu orqali so‘zlovchi o‘z fikrini bo‘rttiradi, ta’kidlaydi. Masalan: Jonivoming hidini qara! Handalak pishipti-da. (Said Ahmad, Ufq)

III. Prosodik (fonetik) vositalar.

Prosodik vositalar (ohang, urg‘u, intonatsiya) ham modallik ma’nolarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida so‘zlovchining his-tuyg‘ulari, emotsiyonal holati va fikrga munosabati aks ettiriladi. Prosodik vositalarning modallik ma’nolarini ifodalashdagi o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ohang.

Ohang orqali so‘zlovchi o‘z his-tuyg‘ularini, hissiy munosabatini ifoda etadi. Masalan, quvonch, hayratlanish, afsuslanish kabi emotsiyonal holatlar ohang orqali tinglovchiga yetkaziladi. Gap ohangining ko‘tarilishi yoki pasayishi, cho‘zilishi yoki qisqarishi turli xil modal ma’nolarni yuzaga chiqaradi.

2. Urg‘u.

Urg‘u gapning ma’no jihatidan muhim bo‘lgan qismlarini ajratib ko‘rsatadi va shu orqali modal ma’nolarni ta’kidlaydi. Urg‘u joylashuviga ko‘ra, gap ma’nosida turli modal ma’nolar (masalan, taajjub, ta’kid, gumon) ifodalanishi mumkin.

3. Intonatsiya.

Intonatsiya gapning modal ma’nosini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Intonatsiya yordamida gapning kommunikativ turlari (darak, so‘roq, buyruq) farqlanadi va ularning modal ma’nolari aniqlanadi. Masalan, so‘roq intonatsiyasi orqali bilish, qiziqish, hayratlanish kabi modal ma’nolar ifodalansa, buyruq intonatsiyasi orqali buyurish, undash, maslahat berish kabi ma’nolar yuzaga chiqadi.

Prosodik vositalar nutqning emotsiyal-ekspressiv bo‘yog‘ini oshiradi, unga ta’sirchanlik va ifodalilik baxsh etadi. Ular yozma nutqda tinish belgilari orqali ifodalansa, og‘zaki nutqda esa bevosita eshitilib, tinglovchiga yetkaziladi.

IV. Sintaktik vositalar.

1. So‘roq va buyruq gaplar.

So‘roq va buyruq gaplar ning har biri o‘ziga xos ohang va kommunikativ maqsadga ko‘ra turli modal ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Keling, ularning imkoniyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilamiz:

So‘roq gaplar kommunikativ jihatdan asosan ikki xil maqsadni ko‘zlaydi: birinchisi – ma’lumot olish, ikkinchisi – tasdiq yoki inkor javobini olish. Biroq, shu bilan birga, so‘roq gaplar orqali taajjub, shubha, guman, hayratlanish, qiziqish kabi turli modal ma’nolar ham ifodalanadi. Masalan: “Harbiy libosdagi yigitlarning saf tortib, shaxdam qadam tashlayotganini kuzatganmisiz? (Vatanparvar. 2024, yanvar)” gapida ma’lumot so‘rash, shu bilan birga, biroz taajjub ma’nosi ifodalangan.

So‘roq gaplarda -mi yuklamasi, so‘roq olmoshlari, intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. So‘roq intonatsiyasi bilan ifodalanadigan aniq bir hissiyat, his-hayajon, munosabat uning modal ma’nosini shakllantiribgina qolmay, balki tinglovchini ham ushbu kommunikativ jarayonga faol jalg qiladi.

Buyruq gaplar tinglovchini biror-bir harakatni bajarishga undash uchun ishlatiladi. Ular orqali buyruq, iltimos, maslahat, talab kabi turli modal ma’nolar anglashiladi. Jumladan: a) “Darrov o‘rningdan tur!” – qat’iy buyruq, talab ma’nosi; b) “Iltimos, mendan ranjimang” – iltimos, o‘tinch ma’nosida; c) “Qaror qabul qilishdan oldin yaxshilab o‘ylab ko‘ring” – tavsiya, maslahat ma’nosini ifodalaydi; d) “Qani, ishga kirishaylik!” – taklifning yumshog‘roq ifodalanishi.

Buyruq gaplarda fe’lning buyruq mayli, shuningdek, “qani”, “-chi”, “-a/-ya” kabi yuklamalar, undov so‘zlar modallik ma’nosini kuchaytiradi. Buyruq ohangidagi intonatsiya ularning ta’sir kuchini yanada oshiradi.

2. Ritorik so‘roq gaplar.

Ritorik so‘roq gaplar modallikning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bunday gaplarda shaklan so‘roq berilgani bilan, aslida javob talab qilinmaydi. Aksincha, so‘roq shakli orqali tinglovchiga ma’lum bir fikr singdiriladi, ta’sir o‘tkaziladi.

Ritorik so‘roq gaplarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

a) ularda so‘roqdan ko‘ra ko‘proq taajjub, hayratlanish, qoqshtirish, ta’kid kabi modal ma’nolar ifodalanadi. Masalan, “Qanday qilib bu ishni bir kunda tugatish mumkin?”, “Yana bir bor aytaymi sizga?” kabi gaplarda so‘roqdan ko‘ra ta’kid ma’nosi kuchliroq;

b) ko‘pincha hayotiy tajriba, umumiy bilimga asoslangan haqiqatni tasdiqlash yoki inkor etish uchun ishlatiladi. “Axir, yer yumaloq emasmi?” degan gap orqali yer sharsimonligi haqidagi umumiy bilim tasdig‘i aks etgan;

c) ritorik so‘roqlar orqali lirk qahramon yoki so‘zlovchining o‘y-hislari, ruhiy holati

ham ochib beriladi. Ularda ko‘pincha emotsionallik, ekspressivlik, ta’sirchanglik sezilib turadi. Masalan, “Nima uchun taqdir mendan yuz o‘girdi?” gapida norozilik, o‘kinch tuyg‘usi aks etgan;

d) ritorik so‘roqlar tinglovchini mushohada yuritishga, voqeа-hodisalar haqida o‘ylashga, muammolar yechimi ustida bosh qotirishga chorlaydi. “Nega ayrim odamlar manfaatparast bo‘lib qoladi?” kabi umumiy muammoga oid ritorik so‘roq o‘quvchini ushbu salbiy xususiyat haqida o‘ylashga undaydi.

Ritorik so‘roq gaplar ko‘proq adabiy, publitsistik, ilmiy uslublarda qo‘llaniladi. Ular muallif nutqini jonlantiradi, fikrni ta’sirchan ifodalashga, o‘quvchi yoki tinglovchida muayyan tuyg‘u va munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Ko‘makchi fe’llar.

Ko‘makchi fe’llar ham gapda ifodalangan fikrga modallik ma’nosini yuklaydi. Bunda ko‘makchi fe’l ish-harakatning turli xil xususiyatlarini ifodalab keladi. Masalan, “Robert mintaqadagi ekologik o‘zgarishlarni ta’riflab berdi” gapida “ta’riflab” yetakchi fe’liga ergashib kelgan “berdi” ko‘makchi fe’li ish-harakatning real haqiqat ekanligini ta’kidlashga xizmat qilmoqda. Agar “berdi” ko‘makchi fe’li tushirib qolinsa ham, gapning ma’nosida o‘zgarish bo‘lmaydi, biroq shakl o‘zgaradi[6,128].

4. To‘liqsiz fe’llar.

“Ekan” va “emish” to‘liqsiz fe’llari gapga turli modal ma’nolar (masalan, gumon, taxmin, ehtimollik) yuklab, shuningdek, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: O‘zini kam ta’minlaganlardan sanaydiganlarning ba’zilari haqini ajratib oluvchi mohirlardan emish. (Zarafshon. 2024, yanvar) A.Hojiyev o‘zbek tilshunosligida to‘liqsiz fe’llarni chuqur tadqiq etgan olimlardan biri sifatida tanilgan. U o‘zining ilmiy izlanishlarida “ekan” va “emish” to‘liqsiz fe’llarining semantik xususiyatlarini atroflicha tahlil qilgan. A.Hojiyev “ekan” va “emish” to‘liqsiz fe’llarining modallik ma’nolarini ifodalashdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ushbu to‘liqsiz fe’llar gapda payt, maqsad, sabab, shart va istak kabi modal ma’nolarni ifodalash orqali nutqning ta’sirchanligini oshiradi va so‘zlovchining

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, modallik o‘zbek tilida tilning turli sathlari doirasida, xususan, leksik, morfologik, fonetik va sintaktik vositalar orqali o‘z ifodasini topadi. Modal so‘zlar, undovlar, murojaat shakllari, baholovchi so‘zlar, fe’l mayllari, affiks va yuklamalar, ohang, urg‘u, intonatsiya kabi til birliklari modallikning turli ma’no qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Modallik vositalarining ma’no xususiyatlari va qo‘llanishi ma’lum bir kommunikativ vaziyat va kontekst bilan ham uzviy bog‘liq. Shu sababli modallikni tadqiq etishda tilning barcha sathlarini qamrab olish, ularni yaxlit sistema sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv modallikning mohiyatini to‘liq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, modallikni ifodalovchi vositalarning xilma-xilligi va ularning o‘zaro uyg‘unligi uning serqirra hodisa ekanligidan dalolat beradi. Turli sathlarga oid birliklarning

modallik semalarini ifodalashdagi o‘zaro aloqadorligi tilimizning boy va mukammal ekanligini ko‘rsatadi.

Modallik kategoriyasini lisoniy tizimda alohida o‘rin tutuvchi, nutqiy muloqotni shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi hodisa sifatida e’tirof etish lozim. Modallik vositalari so‘zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshirishga, fikr va his-tuyg‘ularini tinglovchiga yetkazishga xizmat qiladi. Zero, har qanday muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat modallik orqali o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 2-е изд. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 614 с.
2. Бойматова Д.Б. Мураккаблашган содда гапларда аксиологик модалликнинг семантик-прагматик тадқиқи: PhD дис. автореф. – Жиззах, 2022. – 51 б.
3. Frawley W. Linguistic Semantics. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – 533 p.
4. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – Москва: Высшая школа, 1981. – 196 с.
5. Jespersen O. The Philosophy of Grammar. – London: George Allen & Unwin, 1924. – 359 p.
6. Жўраева М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий маданий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2016. – 233 б.
7. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (Грамматика). – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
8. Lyons J. Semantics. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
9. Ҳожиев А. Тўлиқсиз феъл. – Тошкент: Фан, 1970. – 261 б.